



O‘ZBEK VA INGLIZ PARAMEYALARIDA HAQIQAT KONSEPTINING STRUKTUR SEMANTIK TADQIQI

Muminova Nasiba Solijon qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
Chet tillar 1 kafedra o‘qituvchisi
nasiba_9095@inbox.ru

Annotatsiya. Tilshunoslikda haqiqat konseptining mavjudligi, uning mavjud bo‘lishini tasdiqlovchi nazariy va empirik dalillar ustuvor bo‘lsa, struktur semantik tadqiqi asosida "haqiqat"ni obyektiv va isbotlangan narsa sifatida emas, balki subyektiv va munozarali semantik xususiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir tushuncha sifatida o‘rgatish tavsiya etiladi. Zamonaviy tilshunoslikdagi qator muammolar inson omiliga destruktiv ta’sir etayotgan bir vaqtda, jamiyat hayotining barcha sohalarida haqiqat tushunchasining konseptual asoslarini tadbiq etish, uning amaliy faoliyatdagi konstruktiv ahamiyatini ochib berish hamda haqiqatni belgilovchi struktur semantik vositalar va qo‘llash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan komponentlarni ishlab chiqish.

Kalit so‘zlar: struktur semantik, semantik, konseptual mezonlar, realizm, metod, pragmatik, didaktik.

Annotation. According to the structure's semantic research, "truth" may have a subjective and contentious semantic character rather than being an objective and proven thing if the theoretical and empirical evidence supporting the concept of truth in linguistics and its existence are the top priorities. It is vital to apply the conceptual underpinning of the concept of truth in all spheres of society, to demonstrate its constructive significance in practical activities, and to develop structural semantic tools and components that can be used to determine the truth at a time when a number of issues in modern linguistics have a detrimental effect on the human factor.

Key words: structural semantics, semantics, conceptual criteria, realism, method, pragmatic, didactic.

Аннотация. Существование понятия истины в лингвистике, если приоритетными являются теоретические и эмпирические доказательства, подтверждающие ее существование, основанное на семантическом исследовании структуры, «истина» может не быть объективной и доказанной вещью, но может иметь субъективный и противоречивый смысловой характер. Рекомендуется преподавать как понятие. В условиях, когда ряд проблем современного языкознания оказывают деструктивное

воздействие на человеческий фактор, необходимо применять концептуальные основы понятия истины во всех сферах жизни общества, раскрывать его конструктивное значение в практической деятельности, разработать структурно-семантические инструменты и компоненты, которые можно использовать для определения истины.

Ключевые слова: структурная семантика, семантика, концептуальные критерии, реализм, метод, прагматика, дидактика.

KIRISH.

Mamlakatimizda shaxs tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, komil inson konsepsiyasini yangicha yondashuv asosida shakllantirish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, barkamol shaxs tarbiyasida haqiqat, adolat, ideallik kabi umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lishi mavjud ta‘lim-tarbiya tizimining ratsional imkoniyatlari bilan belgilanmoqda. Bundan kelib chiqib, inson kundalik hayotida asosiy kategoriyalaridan biri sifatida haqiqat tushunchasi doimo ijtimoiy va madaniy omillarga asoslangan holda rivojlanib borar ekan, u nafaqat inson bilimlarini ob'ektiv voqelik bilan uyg'unlashtirishni, balki zamonaviy ilm-fan taraqqiyotining poydevori va unga erishishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladigan yuqori darajadagi bilim idealini ham o‘z ichiga oladi.

Haqiqat - voqelikning kishi ongida to‘g‘ri aks etishi, bilimlarimizning obyektiv reallikka mos kelishidir. Haqiqat insonning borliqni bilishdagi asosiy maqsadlaridan biri. U asosan inson bilimlari bilan borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabat masalasini o‘z ichiga oladi. Haqiqat mazmunan ob‘yektiv, lekin shaklan inson tafakkuri faoliyatining natijasi sifatida sub‘yektivdir. Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslikda haqiqat konseptining mavjudligi, qo‘llanilishi va mavhum tafakkur operatsiyasi va tajribiy tushunchalariga bog‘liqligi qayd etilmoqda. Shu bilan birga haqiqat konseptining struktur semantik kategoriyalar, modellar va umumiy metodlar bilan bog‘liq holda o‘rganish ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Haqiqatning mazmuniga yangi-yangi zarralar qo‘shib borilar ekan, borliq bepoyon va cheksiz bo‘lgani kabi, insonning uni bilishi ham cheksiz davom etadi. Har bir bilimning haqiqatligi ma‘lum joyga, vaqt va vaziyatga, kishi bilishining imkoniyatiga va darajasiga bog‘liq. Haqiqat tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyati, turlari va mezonlari, jamiyat hayotida tutgan o‘rni borasida turli yo‘nalishlarda bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu ma’noda, ushbu maqolada aynan mavzuga aloqador bo‘lgan bir qancha mezonlarni ko‘rib chiqamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

“...Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi”- Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shaxsning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlari ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish mamlakatda amalga oshirilayotgan pedagogik ta‘lim islohotlarning asosiy maqsadi kuchli raqobatbardosh pedagogik mutaxassis kadrlarni

tayyorlash – deb aytgan, chunki, xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlarini salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashning yangi tizimini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasida ta’lim taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo‘lib qoldi. OTMlarda tilshunoslikning kognitiv nazariy tizimini yaratishda kreativ yondashuvga, “Haqiqat” konseptini shakllantiruvchi lisoniy vositalar markaz va periferiyalarni hosil qilishda konseptual maydonning markaz, yaqin va uzoq periferiyalarni aniqlash va ularni ko‘rsatuvchi elementlar tavsiya etish jarayonidagi o‘rni hamda differensial va individual jarayoniga ta’limning o‘zaro ta’minlash, tayanch signal sistemalaridan samarali foydalanish muammoli – kognitiv parametrlar asosida shaxsni rivojlanishiga zamin yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori, 2017 yil 22 maydagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-304-son Qarori 2019 yil 4 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4479-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son. Taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 4-martdagi PF6181-son “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari va 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori, Haqiqat tushunchasining zamonaviy jamiyatda namoyon bo‘layotgan dinamik xususiyatlari shaxs maqsad, mo‘ljallarining fluktatsion rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi isbotlanganligiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining “Ma’naviy tahdidlar va ularga qarshi kurashish” mavzusidagi tadbir ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil 29- noyabrdagi 4-13-23-4054-son ma’lumotnomasi) hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Haqiqat muammosi asrlar davomida ko‘plab faylasuflar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, dastlab haqiqat mavzusi Aflotun, Geraklit, Suqrot, Arastu, Demokrit, kabi yunon

mutafakkirlari asarlarida o‘ziga xos tarzda talqin etilgan. Mavzu doirasining kengligidan kelib chiqib mazkur tadqiqot ishida, neoklassik va postnoklassik, xorijiy va o‘zbek haqiqat nazariyalariga doir tadqiqotlar tahlil etildi. Jumladan, neoklassik haqiqat nazariyasining dastlabki vakillaridan biri Russell mulohazalariga binoan, har qanday ob‘yektning haqiqiylikiga ishonish, unga tegishli fakt va dalil bo‘lgandagina amalga oshadi. “Haqiqat haqidagi bilimlarimiz birdaniga, tayyor holda yuzaga kelmaydi. Biz predmet va hodisalarning avval tashqi tomonlarini, so‘ngra esa ichki tomonlarini bilib boramiz”. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, inson bilimi haqiqatning mohiyatiga tobora yaqinlashib boradi. haqiqat mazmunan juda keng tushuncha sanaladi. Uning mazmuni makon va zamonga bog‘liq ravishda o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Haqiqat ontologik va gnoseologik xususiyatga egadir. Ontologik xususiyatga ko‘ra, haqiqat o‘z - o‘zicha borliqdir, gnoseologik xususiyatga ko‘ra – insonning borliq haqidagi haqiqatni anglashidir. Demokrit haqiqatni tan olish yo‘lida “hissiy bilish faqat ma‘lumot berish vazifasini bajaradi, u aql ishtirok etgandagina o‘z darajasiga ko‘tariladi” deb bilardi. Aflotun tushunchasida haqiqat g‘oyalarning o‘zgarmas mutlaq xossasidir. Haqiqat konseptining ilmiy-nazariy tahlili bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borgan xorijlik olimlar sirasiga K.Volfgang, D.Marian, A.Tarskiy, K.Popper, F.A.Puankare, J.Mariten, N.Gartman Tomas Kun, Pol Karl Feyerabend, Jak Derrid, Jil Delyoz kiritish mumkin. Shuningdek, Alfred Tarskiy tadqiqotlarida haqiqatning semantik nazariyasi ishlab chiqiladi; Donald Davidson, Jennifer Hornsby, Maykl Linch izlanishlarida haqiqatning strukturasi va mazmuni, haqiqatning funksional nazariyasi hamda obyektiv va subyektiv haqiqat tushunchalari asoslab beriladi. Tarski tilshunoslikda haqiqat g'oyasi haqidagi asosiy ishining birinchi qismini yakunlar ekan, quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Haqiqat yoki haqiqiy" iborasi mantiqqa va umumiy tildan foydalanishga mos keladigan izchil ishlatilishi mumkin bo‘lgan atama. Ushbu iboraning to‘g‘ri ta’rifini ishlab chiqilganligi, haqiqat konseptining mezonlari va optimallashtirishga oid bo‘lgan mulohazalar bilan yoritilgan. Natijada globallashuv jarayoni va ma’naviy tahdidlar sharoitida hodisa va jarayonlarning qanchalik haqiqatga muvofiq yoki muvofiq emasligini ko‘rsatib berishda, targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etishda nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Mamlakatimizda tilshunoslik ilmda konseptlar yuzasidan tilning turli xil parameiyalarida kognitiv pragmatik tadqiq etish asosiy xususiyatlari, aniqligi, haqiqatning aksiologik, praksiologik talqinlari, shuningdek, til birliklari konsept masalalarida O‘.Yusupov, D.Ashurova, Sh.Safarov, A.Mamatov, D.Agzamova, A.Nurmonov, D.Xudoyberganova, D.Lutfullaeva, Sh.Iskandarova, N.Hoshimova, N.A.Shermuhammedova., B.To‘rayev, Z.Davronov., E.Izzetovalar tomonidan tadqiq etilgan.

TAHLIL VA NATIJA.

Haqiqat – voqelikning kishi ongida to‘g‘ri aks etishi, bilimlarimizning obyektiv reallikka mos kelishi hamda insonning borliqni bilishdagi asosiy maqsadlaridan biridir. Haqiqat asosan inson bilimlari bilan borliqdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabat masalasini o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikda "haqiqat" deganda, ko‘pincha, gap, jumla va matnlarning dunyodagi

holatga mos kelishi nazarda tutiladi. Masalan, agar men "Osmon ko‘k" desam, bu gap haqiqat bo‘lishi uchun, o‘sha paytda osmon haqiqatan ham ko‘k bo‘lishi kerak. Muloqot orqali olinayotgan ma‘lumotlarning haqiqat ekanligini tahlil qilishimiz va o‘rganishimiz muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Quyida haqiqatning turlari haqida so‘z boradi:

1. Semantik haqiqat: Bu gapning ma'nosi, so‘zlar va ularning o‘zaro aloqalari bilan bog‘liq haqiqat. Masalan, "Barcha uylarning tomlari bor" - bu semantik jihatdan haqiqat, chunki bu gapning ma'nosi, uylarning ta'rifidan kelib chiqadi.

2. Pragmatik haqiqat: Bu gapning kontekstga, vaziyatga va gapiruvchining niyatiga bog‘liq haqiqat. Masalan, agar kimdir "Och qoldim" desa, bu gapning haqiqat bo‘lishi, uning ochligiga va niyatiga bog‘liq.

3. Epistemik haqiqat: Bu gapning bizning bilimlarimiz va ishonchimiz bilan bog‘liq haqiqat. Masalan, "Yer shar shaklida" deb aytganimizda, bu haqiqatni bilamiz, chunki bizda bunga ishonchimiz va bilib olingan dalillarimiz bor.

Avvalo, tilshunoslikdagi pragmatika va didaktika nima ekanligini eslab o‘taylik.

- Pragmatika tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning kontekstda qanday ishlatilishini, ya'ni so‘zlar va gaplarning ma'lum sharoitlarda qanday talqin qilinishini o‘rganadi. Pragmatika nutq aktlari, suhbat dinamikasi, maqsadlar va niyatlar, kontekst omillari kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

- Didaktika o‘qitish nazariyasi va amaliyoti bo‘lib, u o‘quv jarayonini tashkil qilish, o‘qitish metodlarini tanlash, o‘quv materiallarini ishlab chiqish kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. Tilshunoslikda struktur semantika esa til o‘rgatish va o‘rganishda pragmatik jihatlarning ahamiyatini o‘rganadi. Ya‘ni, til o‘rganuvchilarga so‘zlarning nafaqat lug‘aviy ma'nosini, balki ularning kontekstda qanday ishlatilishini, qanday maqsadda gapirilishini tushunishga yordam berishga qaratilgan. Struktur semantik talqin bu juda muhim bo‘lgan mavzu, chunki u "haqiqat" tushunchasini tilshunoslik va o‘qitish metodlari bilan bir biriga uzviy bog‘laydi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan "haqiqat" tushunchasining struktur semantik talqini quyidagi jihatlarga e'tibor qaratadi: 1. Haqiqatning til vositalari bilan ifodalanishi: Tilshunoslik nuqtai nazaridan "haqiqat" tushunchasi turli til vositalari yordamida ifoda etiladi. Bularga leksik vositalar (masalan, "haqiqat", "rost", "to‘g‘ri" so‘zlari), grammatik vositalar (masalan, modal so‘zlar, tasdiqlash va inkor shakllari), sintaktik vositalar (masalan, gap tuzilishi) va stilistik vositalar (masalan, metaforalar, ironiya) kiradi. Struktur semantik yondashuvda o‘quvchilarga ushbu vositalarning "haqiqat" ma'nosini qanday shakllantirishini o‘rgatish muhimdir. 2. Haqiqatning nutq akti sifatida vazifasi: Tilshunoslikda nutq akti nazariyasiga ko‘ra, har bir nutq biror ishni bajarish maqsadida amalga oshiriladi. "Haqiqat"ni ifodalash ham o‘ziga xos nutq aktidir. Biz "bu haqiqat" deb aytish orqali nafaqat ma'lumot beramiz, balki o‘z ishonchimizni ifoda etamiz, boshqalarni o‘z fikrimizga ishontirishga harakat qilamiz yoki biror gapning muhimligini ta'kidlaymiz. Struktur semantika o‘quvchilarga "haqiqat" nutq aktining pragmatik ma'nosini, uning turli vaziyatlarda qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi.

3. Kontekstning "haqiqat"ga ta'siri: Tilshunoslik pragmati-kasida kontekstning ahamiyati juda katta. Nutq vaziyati, nutq ishtirokchilari, ularning bilim va e'tiqodlari, ijtimoiy-madaniy sharoitlar kabi omillar "haqiqat" ma'nosini o'zgartirishi mumkin. Masalan, ilmiy muhitda bir gapning "haqiqat" sifatida qabul qilinishi, ijtimoiy muhitda boshqacha talqin qilinishi mumkin. Struktur semantik yondashuvda o'quvchilarga "haqiqat"ning kontekstga bog'liqligini, turli vaziyatlarda uning qanday o'zgarishini o'rgatish kerak. 4. Diskurs va "haqiqat": Tilshunoslikda diskurs tahlili ham muhim rol o'ynaydi. Diskurs - bu nutqning ijtimoiy va madaniy kontekstda yaratilgan ma'lum bir turi. Haqiqat tushunchasi diskursga bog'liq holda ham turlicha ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, siyosiy diskurslarda, ommaviy axborot vositalari diskurslarida, yuridik diskurslarda "haqiqat" qanday yaratilishi va qanday manipulyatsiya qilinishini o'rganish juda muhimdir. Struktur semantika o'quvchilarga diskursda "haqiqat" qanday ifodalanishini, uning maqsadi va ta'sirini tahlil qilishga yordam beradi. 5. So'zlashuv strategiyalari va "haqiqat": Haqiqatni ifoda etishda so'zlashuv strategiyalari muhim rol o'ynaydi. Biz uni ta'kidlash uchun turli xil usullardan foydalanamiz, masalan, to'g'ridan-to'g'ri ta'kidlash, ishora qilish, takrorlash, bahslashish, dalillar keltirish va boshqalar. Struktur semantik yondashuv o'quvchilarga ushbu strategiyalarni o'rganish, ulardan to'g'ri foydalanish va ularni tanqidiy tahlil qilish imkoniyatini beradi. 6. Tanqidiy fikrlash va "haqiqat": Struktur semantik yondashuvda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. O'rganuvchilarga "haqiqat"ni har doim ham bir xil qabul qilmaslikni, balki turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishni, manbalarning ishonchliligini tekshirishni va o'z xulosalarini chiqarishni o'rgatish kerak.

XULOSA.

Hozirgi davr sharoitida ham xuddi o'tmishdagidek haqiqat, ezgulik va go'zallik kabi uch oliy qadriyat insoniyat hayot faoliyatidagi eng oliy mezon bo'lib qolaveradi. Ulardan birinchisi – bilimlar qiymatini, ikkinchisi – turmushning axloqiy poydevori asosini belgilash, uchinchisi esa san'atdagi qadriyatlarga xizmat qiladi. Bunda haqiqat ezgulik va go'zallikni uyg'unlashtiruvchi asosiy nuqta vazifasini o'taydi. Haqiqat bu maqsadlik sari yo'naltiruvchi tafakkur kuchi bo'lib, bu haqida F.Bekon "Bilim kuchdir, u faqat o'zgarmas sharoitdagina haqiqiydir", degan aqlli fikrni ilgari surgan. Haqiqat bu bilim. Biroq har qanday bilim ham haqiqat bo'la olarmikan? Olam to'g'risidagi va hatto uning alohida sohalari to'g'risidagi bilimlar qator ayrim sabablar natijasi o'laroq o'zida chalkashlikni aks ettirishi mumkin. Zotan, ongli ravishda haqiqatni buzib talqin qilish, yuqorida e'tirof etilganidek, bilimning mohiyati inson tafakkurida borliqning tushuncha, tasavvur, mulohaza, nazariya ko'rinishidagi adekvat in'ikosini tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida mazkur masalalar doirasidagi qo'lga kiritilgan yutuqlarni hisobga olgan holda tanqidiy va tahliliy fikr-mulohazalarni ishlab chiqish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Yuksak bilim asosida kuch-qudratli bo'lishga intilish insonni haqiqatni bilish tavsifini belgilab beradi. Bu esa haqiqatning lingvistik xususiyatlarini to'g'ri va oqilona yoritib berish qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Bu esa, yuqorida ta'kidlanganidek, so'zlashuv strategiyalari, nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsad bilan

bevosita aloqador. Haqiqatning asosiy nazariy va lingvistik tushunchalari doirasida o‘rganildi hamda haqiqatning struktur semantik xususiyatlari va imkoniyatlari mantiqiy va semantik jihatdan asoslanadi. Haqiqatni izlash yoki haqiqat qaror toptirish til birliklarining semantik maydonida fidoiylilik, adolatli, ishonch, vijdonli, haqiqatgo‘y, hammaga birdek yordam berish, to‘g‘ri so‘z, samimiylik singari semalar o‘rin oladi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda haqiqat tushunchasi nafaqat muloqotda, balki bizning bilishimizda, jamiyatimizda va tadqiqotlarimizda ham muhim rol o‘ynaydi. Tilshunoslikda "haqiqat" konsepsiyasining struktur semantik talqini o‘quvchilarga bu tushunchani faqat lug‘aviy ma’noda emas, balki uning til vositalari orqali qanday ifodalanishini, nutq akti sifatidagi vazifasini, kontekstga bog‘liqligini, diskursda qanday yaratilishini, so‘zlashuv strategiyalari bilan qanday bog‘liqligini va tanqidiy fikrlash orqali qanday tahlil qilish mumkinligini tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarga tilni nafaqat bilish, balki uni amalda to‘g‘ri qo‘llay olish, muloqotda samarali ishtirok etish va manipulyatsiyaga qarshi tura olish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fraser, B. (1981). "On Apologizing". In F. Coulmas (Ed.), *Conversation Routine: Exploration in Standardized Communication Situations and Prepatterned Speech*. 259-271.
2. Olshtain. E. and Cohen. A. (1983). "Apology: A Speech Act Set" (online). www.shinshuu.ac.jp/surcle.eu.html
3. Holmes, J. (1990). "Apologies in New Zealand English". *Language in Society*, 19 (2), 155-199.
4. Garry Chapman, Jennifer Tomas. *The five languages of apology*. Northfield PG.-2006.
5. Thomas. Jenny. (1995). *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. London: Longman Group.
6. Fasold, R. (1996). *The Sociolinguistics of Language*. Oxford: Blackwell Publishers.
7. Meier, Arndt J. (2004). "Has 'Politeness' Outlived its Usefulness?" *Views* 13(1), 5-22.
8. Yusupov O‘.Q. Chog‘ishtirma tilshunoslikning yangi vazifalari. *Xorijiy filologiya*. – S.: 2011. – №3. – B.100
9. Ashurova D.U. Novie podxodi k lingvistike teksta. *Xorijiy filologiya*. – №3. – Samarkand.: 2011. – B.32
10. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 25.
11. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. –T.: "Noshir". 2019. – B. 71-102.
12. Agzamova D.B. "Xotira" konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari: Filol.fanl. nomz. ...diss. –T.: 2012. – B.27.
13. Muminov K.A. Methods of education and prediction of students based on foresight technologies. // *World of Scientific news in Science International Journal*, in Volume 2, 2024(<https://worldofscientificnews.in/index.php/wsjc/issue/view/7>), Germany. -P. 272-282.
14. Muminov K.A. Methodology for improving students' delphi critical technologies and creative competencies.// *The bioscan An International Quarterly Journal of Life Sciences* ISSN 0973-7049 Vol. 19 No.